

O'ZBEK MILLIY KURSHI INSONNI TARBIYALASH VOSITASI SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8031272>

Ro'zikulov Ravshan Raximovich

Samarqand davlat chet tillar instituti assistent o'qituvchisi

Isroilova Mohigul Baxodir qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti assistent o'qituvchisi

Annotatsiya.

Milliy qadriyatdan, o'tmishdan mardlik va jasurlikni, insoniylikni uzida mujassam qilgan kurash sport turi.

Kalit so'zlar.

Kurash, qadriyat, milliy, halol, yonbosh, chala, dakki, supurma, "Zafarnoma", polvon.

Аннотация.

Борцовский вид спорта ебे воплощает в себе человечность о твағы из прошлого и национальную ценность.

Ключевые слова.

Беъба, достоинство, национальный, halol, yonbosh, chala, dakki, supurma, "Zafarnoma", борец.

Abstract.

Kurash, is a type of sport, which include all features from the past, such as national values fortitude, bravery and humanity in it.

Key words.

Kurash, value, national, halol, yonbosh, chala, dakki, supurma, Zafarnoma, wrestler.

Milliy qadriyatdan umuminsoniy qadriyatga aylanib bugun jahon nigohini o'ziga mahliyo etgan kurash ma'naviy qadriyat va sport turi sifatida o'zining chuqur tarixiga ega. Tarixshunos, qadimshunos, elshunos va faylasuf olimlarning olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari va arxeologik ilmiy qidiruvlari, kuzatishlari natijasida topilgan ashyoviy dalillar kurashning yoshi kamida 2,5-3 ming yildan ziyod ekanligini tasdiqlaydi.

O'z zamonasida qudratli sultanat qurgan Amir Temur buyuk davlat arbobi, ma'rifatparvar hukmdor, salohiyatlari sarkarda bo'lib qolmasdan, ayni vaqtida kurash ilmi hadisini mukammal egallagan kuchli polvonsifat inson ham bo'lgan. Shuning uchun u mamlakatda yoshlarni chiniqtirish, vatanni sevuvchi, yurt xizmatiga kamarbasta, yetuk shaxslar qilib voyaga yetkazishda kurashning tutgan

o'rniga katta ahamiyat bergen. Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" sida va Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida esa Sohibqiron Amir Temur davridagi pahlavon Bobohoki (asli Afg'oniston shimolidagi Shibirg'on viloyatidan) Uchqora Bahodir (asli Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidan), Abbas Usmon Joloyir (asli Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidan) singari yuzlab benazir o'zbek polvonlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Qadimiy Sug'diyona markazi bo'lgan Samarqandda Navro'z bayrami har doim xalq tomoshalari bilan o'tgan. Bularda xalq, san'at vakillari, baxshilar, xonandalar, hofizlar, dorbozlar, raqqoslar o'z san'atini namoyon qilishgan. Bu bayramlarda xalq, dorbozlarning chiqishi va ayniqsa, poygani zo'r qiziqish bilan tomosha qilishgan. Lekin har bir bayram kurashsiz o'tmagan. Musobaqalar natijasida har yili kurashchilardan biri Sug'diyona polvoni nomini olgan. Bayramlarda ushbu polvon obro'li joyda o'tirgan va kurash tushishni istagan har kishini bellashuvga chaqirgan. Odatda talabgorlar ko'p bo'lgan. Ba'zi vaqtarda asosiy polvon va kuchiga ko'ra unga munosib raqiblar o'rtasidagi kurash, hatto, bir necha kun davom etgan. Kurashda o'z raqibini yenggan polvon kelgusi yil g'olibi hisoblangan. Bundan tashqari Samarqandda Qurbon hayit bayrami kunlarida doimo kurash bellashuvlari o'tkazilgan va u ko'p tomoshabinlarni o'ziga jalb qilganligi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud.

Xalq og'zaki ijodida ham kurash sporti to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ushbu turdag'i manbalardan o'tmishda kurashning mavjudligini emas, balki uning xususiyatlari, kurash sharti va texnikasi to'g'risida ham ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Milliy kurash ertaklarda ham aks ettirilgan. Masalan, Xirs polvon "qoqma" deb nomlangan usulni qo'llagan. Hozirgi vaqtida ham kurashchilar bu usuldan foydalanadilar. Faqatgina bu usul bugungi kunda "supurma" usuli deb nomlanadi.

Xalq og'zaki ijodi asarlari orasida "Alpomish" dostoni alohida o'r'in egallaydi. Dostonda polvonlarning bellashuvi, ularning kuchlilik, chaqqonlik, chidamlilik,

botirlik kurashish usullarini qo'llay bilish sohasida musobaqalashuvi badiiy shaklda tasvirlangan. Alpomishda tasvirlangan kurash manzarasidan kurashchilar

maxsus kiyim va belbog'iga ega bo'lganligini, kurash vaqt jihatidan cheklanmaganini, raqibini belbog'idan ushlab olish asosiy usul hisoblanganligini

ko'rish mumkin.⁸³.



Kurashning qadimiy ma'nosi, zo'riqish belga borib taqaladigan, bir qancha yo'nalishlarni o'zida mujassam qilgan hamda belbog'dan ushlab amallarga tayanib raqibning yelkasini yerga tekkizishning barchasi kurash hisoblanadi. Kurashning asl ma'nosi, bu - yiqitish. Bel olishning ma'nosi - maqsadga erishish uchun har qanday raqibga jismoniy kuch ishlatish paytidagi harakat bu - bel olishdir. Shuningdek, zo'riqishlar belga borib taqalgan belbog'ni ushlab bajariladigan amallarning barcha turlari bel olish kurashidir. Uning asl ma'nosi kuch ishlatish sanaladi. Amal - harakat davomida biron-bir natijaning ko'rinishi amal deyiladi. Anikroq qilib aytganda, biron-bir harakat natijasida raqib cho'kkalatilsa, o'tqazib qo'yilsa, bir yelkaga yoki ikki yelkaga yikitilsa, bularning barchasini amal deyish mumkin. To'n (chopon) - kurashchining ust kiyimi. Uning uzunligi tizzagacha, qora, ko'k, kulrang, ola va boshqa ranglarda bo'ladi. Yaktakning vazifasi - kurash paytida badandagi terni o'zida saqlab qolish hamda avratni yopib turishga mo'ljallangan ko'ylak. Rangi oq, uzunligi chopondan 5-10 sm kalta bo'lib, kurashda chupon ichidan kiyiladigan kiyim. Shalvarning vazifasi - uzunligi oyoq to'pig'igacha bo'lgan oq shalvarning yuqori qismi ishtonbog' bilan qisib bog'lanadi. U keng, kurashda bemalol o'tirib-turish va oyoqni erkin ko'tarishga imkon beradi.⁸⁴ Kurashning umuminsoniy qadriyat ekanligi uning insonparvar xarakterda ekanligida ham oz aksini topadi.

⁸³ O.E.Toshmurodov, B.B.Kipchakov, A.T.Umarov. Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi (milliy kurash). O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 232 bet.

⁸⁴ <https://www.xabar.uz/uz/sport/bel-olish-kurashining-bizgacha-etib-kelga>

1992-yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov o'zbek kurashining jonkuyari K.Yusupovni suhbatga chorladi va kurashni istiqbolini belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning 1999- yil 1-fevraldagagi "Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni kurashimiz rivojlanishini yangi bosqichga ko'tardi. 1999-yili Toshkentda bo'lib o'tgan 1-jahon championatida Yevropa, Osiyo, Afrika, shimoliy va janubiy Amerika qit'alarining 30 mamlakati vakillari ishtirok etdi. Shundan buyon kurash bo'yicha jahon va qit'a championatlari muntazam o'tkazilib kelinmoqda. Ta'kidlash kerakki bir qarashda kurash mazmunini ma'lum darajadagi tayyorgarlikdan o'tgan sportchilar bellashuvi, ularning bir-birini jismonan, kuch ishlatib mag'lub bo'lishga majbur etishida ko'rish mumkin. Ammo, kurash bo'yicha musobaqa qoidalari va umume'tirof etgan normalari sportchilarga, murabbiylarga va hakamlarga shunday talablar qoyganki, natijada, harakatlar tizimining egallaganlik darjasini bilan tavsiflanadi.

Usullar - bu maqsadga yo'naltirilgan hujum harakatlari bo'lib, ular yordamida kurashchi raqibidan ustunlikka erishishga intiladi. Kurashchining texnik usullarni to'liq amalga oshirishdan asosiy maqsad - raqibni gilamga ikki kuragi bilan tushirishdir. Ayrim hollarda bellashuv paytida raqibga nisbatan hisobda oldinga chiqish uchun texnik usullarni to'liqsiz yoki chala bajarilganligi uchun ham ijobjiy baholarga erishish mumkin. Bunda to'liq, to'liqsiz va chala bajarilgan texnik usullar atamalari ishlatiladi va ular texnik usulning qanday bajarilishiga qarab quyidagicha baholanishi mumkin:

- to'liq bajarilgan texnik usul uchun kurashchi kop hollarda "**halol**" ijobjiy bahosiga erishadi;
- to'liqsiz bajarilgan texnik usul uchun kurashchi ko'p hollarda "**yonbosh**" ijobjiy bahosiga erishadi;
- chala bajarilgan texnik usul uchun kurashchi ko'p hollarda "**chala**" ijobjiy bahosiga erishadi.

Kurashda sportchi bellashuvdagi faolligi va boshqa harakatlariga bog'liq holda ijobjiy baholar bilan bir qatorda salbiy baholar bilan ham "siylanadi". Bular - "**tanbeh**", "**dakki**", "**g'irrom**" baholaridir. Salbiy baholar kurashchiga - bellashuvning ma'lum qismi davomida faolligi sust bo'lgan, musobaqa qoidasini buzadigan, raqibiga va hakamlarga nisbatan hurmatsizlik ixtiyor etgan, bellashuvga kechikib chiqadigan, kurashchi sport formasida kiyinish madaniyatiga e'tiborsizlik qilgan hollarda beriladi.⁸⁵

⁸⁵ Akbarov A., Karimov U.R. Kurashda texnik tayyorgarlikni takomillashtirish [Matn] : uslubiy qo'llamma / A. Akbarov, U.R. Karimov -Toshkent: XK "Umid Design", 2021.-84 b.

Milliy kurash sport turi bilan shug'ullanuvchi kishida dastlab unda harakat ko'nikmasi, chaqqonlik, tezkorlik, jismoniy sifatlarni barchasi rivojlanib boradi. Milliy kurash sport turi ota bobolardan merosligi, kurashchilarni bir-biriga hurmati, ta'zim qilib salomlashishi, bir-biriga bo'lgan hurmati namoyon bo'ladi. Kurashda mag'lub bo'lgan sportchi kuragi yerga teksa mag'lubligi tan olinadi va qo'l berib ko'rishib gilamni tark etadi. Musobaqa faoliyati ish tirokchilari mashg'ulotlar, musobaqalar va sport tadbirlari jarayonida umuminsoniy qadriyatlar mezoni doirasida tarbiyalanib, shakllanib boradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O.E.Toshmurodov, B.B.Kipchakov, A.T.Umarov. "Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi (milliy kurash)". O'quv qo'llanma. Samarqand: SamDU nashri, 2021. -232 b .

2.J.Axmedov. "Kurash va uni o'qitish uslubiyati".O'quv qo'llanma.Toshkent : "Umid Design", 2021.-160 b.

3.Akbarov A., Karimov U.R. "Kurashda texnik tayyoragarlikni takomillashtirish" [Matn] uslubiy qo'llanma. A. Akbarov, U.R. Karimov -Toshkent: XK "Umid Design", 2021.-84 b.